K.T. Suyarov va R.Q. Choriyev maktab fizika tajribalarining mazmuni va tashkil etilishiga oid metodik tavsiyalarni tizimlashtirgan; L.L. Goldin va hammualiflar laboratoriya mashg'ulotlarida eksperimental madaniyat, aniqlik va mustaqil xulosaga alohida urg'u bergan. [6, 7]

K.T. Suyarovning tadqiqotida fizik eksperimentlar asosida o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shartlari ochib berilgan.

F.B. Turaxonov noan'anaviy laboratoriya ishlarini ijodiy topshiriqlar bilan boyitish o'quvchini tayyor algoritmdan izlanish faoliyatiga olib o'tishini asoslagan. Eksperimental mashg'ulotlarda o'quvchining psixologik-pedagogik faolligini ta'minlash, amaliy harakat va nazariy tushunchani uyg'unlashtirish masalalari ham mahalliy tadqiqotlarda yoritilgan. [8, 9, 15]

Integrativ yondashuv bo'yicha O.X. Dehqonova fizikani matematika va axborot texnologiyalari bilan bog'lab o'qitishning imkoniyatlarini, A.N. Ernazarov esa ta'lim klasteri sharoitida elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini ko'rsatgan. STEAM konsepsiyasi tajribani faqat qonunni tasdiqlovchi jarayon sifatida emas, balki muhandislik yechimi, konstruktorlik, hisoblash va ijodiy taqdimot bilan bog'langan loyiha faoliyati sifatida tashkil etishga imkon beradi. [10–13]

Mavjud ishlar fizik tajribaning alohida shakllari va texnologiyalarini chuqur yoritadi. Biroq tajriba turlarini o'quvchi faoliyatining aniq bosqichlari, 7–11-sinflardagi izchil murakkablashuv, didaktik vositalar majmui va baholash indikatorlari bilan yagona matritsada bog'lash ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ushbu maqolada "tajriba turi – faoliyat algoritmi – didaktik vosita – kompetensiyaviy natija – baholash dalili" o'rtasidagi uzviylik asosiy metodik g'oya sifatida ilgari suriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompetensiyaviy, faoliyatli, tizimli, integrativ va differensial yondashuvlarga tayandi. Kompetensiyaviy yondashuv:

- kutiladigan natijani o'quvchining kuzatiladigan amaliy harakati orqali ifodalashni;
- faoliyatli yondashuv bilimni tajriba jarayonida egallashni;
- tizimli yondashuv maqsad, mazmun, metod, vosita va baholashning o'zaro bog'liqligini;
- integrativ yondashuv fizika, matematika, texnologiya va raqamli vositalar birligini;
- differensial yondashuv esa topshiriqlar murakkabligi hamda yordam miqdorini o'quvchining tayyorgarligiga moslashtirishni

taqozo etdi.

Tadqiqot usullari sifatida ilmiy-metodik manbalarni nazariy tahlil qilish, 7–11-sinflar fizika kursidagi laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar mazmunini kontent-tahlil qilish, tajriba turlarini qiyoslash, faoliyat bosqichlarini modellashtirish, didaktik vositalarni tizimlashtirish hamda baholash indikatorlarini pedagogik loyihalash usullaridan foydalanildi. Muallifning fizik jihozlar asosida namoyishli tajriba va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishga oid avvalgi ishlari ham metodik yechimlarni aniqlashtirish uchun tayanch vazifasini bajardi.^[14]

Maqolada fanga oid amaliy kompetensiya o'quvchining fizik muammoni anglash, tajriba maqsadi va gipotezasini belgilash, zarur asbob-uskunani tanlash, xavfsiz va aniq o'lchash, natijalarni jadval, grafik yoki formula yordamida qayta ishlash, ilmiy xulosa chiqarish, olingan bilimni yangi vaziyatda qo'llash hamda o'z faoliyatini baholash qobiliyatlarining integrativ birligi sifatida qabul qilindi. Mazkur ta'rif kompetensiyani faqat motor ko'nikma yoki laboratoriya yo'riqnomasini bajarish bilan cheklamasdan, kognitiv, operatsion, tahliliy, kommunikativ va refleksiv komponentlarni birlashtiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, fizik tajribaga asoslangan besh bosqichli faoliyat algoritmi tajriba turlari va 7–11-sinflar bo'yicha murakkablik dinamikasi bilan bog'landi; didaktik ta'minot tarkibi esa o'quv jihozi, yo'riqnoma, muammoli topshiriq, raqamli resurs, natijani qayd etish shakli va mezonli baholash vositasidan iborat yaxlit tizim sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fizik tajribaga asoslangan o'quv faoliyatining didaktik algoritmi

Tajriba asosidagi darsning kompetensiyaviy samarasi o'quvchining jarayonda qaysi intellektual va amaliy harakatlarni bajarayotgani bilan belgilanadi. Agar o'quvchi faqat o'qituvchi ko'rsatgan hodisani kuzatsa yoki tayyor ko'rsatmadagi qadamlarni ma'nosini anglamasdan takrorlasa, faoliyat reproduktiv darajada qoladi. Shu sababli har bir tajriba o'quvchini muammoni sezishdan bilimni yangi vaziyatda qo'llashgacha olib boradigan besh bosqichli sikl asosida loyihalanadi(1-rasm).



1-rasm: Fizik tajribaga asoslangan o'quv faoliyatining didaktik algoritmi

Kuzatish bosqichida hodisa o'quvchi uchun muammoli savolga aylantiriladi. O'qituvchi natijani oldindan aytmaydi, balki "Nima sodir bo'ladi?", "Qaysi omil natijaga ta'sir qiladi?" kabi savollar yordamida taxmin va gipotezalarni yuzaga chiqaradi. Namoyishli tajribaning kompetensiyaviy qiymati aynan shu yerda namoyon bo'ladi: o'quvchi passiv tomoshabindan hodisani maqsadli kuzatuvchi va dastlabki izohni taklif qiluvchi subyektga aylanadi.

O'lchash bosqichida o'quvchi tajriba sxemasini tushunadi, asbob diapazoni va bo'linma qiymatini aniqlaydi, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va miqdoriy ma'lumotlarni qayd etadi. Bir martalik o'lchov o'rniga takroriy o'lchash, o'rtacha qiymatni topish va natijani jadvalga kiritish o'quvchida aniqlik, mas'uliyat va eksperimental



madaniyatni shakllantiradi. Guruhli ishda “tajriba bajaruvchi”, “o’lchovchi”, “qayd etuvchi”, “tahlilchi” kabi rollarni navbat bilan almashtirish har bir o’quvchining amaliy harakatda ishtirok etishini ta’minlaydi.

Tahlil qilish bosqichida olingan ma’lumotlar tartiblanadi, grafik yoki matematik ifodaga o’tkaziladi, bog’lanishning turi va xatolik manbalari aniqlanadi. Xulosa chiqarishda tajriba natijasi nazariy qonuniyat bilan bog’lanadi, gipotezaning tasdiqlangan yoki rad etilgan jihatlari izohlanadi. Amaliy qo’llash bosqichida esa o’zlashtirilgan qonun yangi masala, kundalik hayotiy vaziyat, konstruktorlik topshirig’i yoki mini-loyihada qo’llanadi. Mazkur yakuniy bosqich bilimning transferini ta’minlab, kompetensiyaning real namoyon bo’lishiga xizmat qiladi.

Tajriba turlarining kompetensiyaviy imkoniyatlari

Fizika darsida tajribaning bir turi barcha maqsadlarni birdek hal qila olmaydi. Shuning uchun namoyishli, frontal, guruhli, mustaqil va virtual tajribalar o’z vazifasiga ko’ra tanlanishi va yagona o’quv siklida bir-birini to’ldirishi lozim. Ularning metodik funksiyalarida umimlashtirilgan.

1-jadval: Fizik tajriba turlarining didaktik vazifalari va kompetensiyaviy natijalari

Tajriba turi	Asosiy didaktik vazifa	Rivojlantiriladigan kompetensiyaviy natija
Namoyishli tajriba	Hodisani ko’rgazmali idrok etish, qiziqish va muammoli vaziyat yaratish, nazariy tushunchani konkretlashtirish.	Maqsadli kuzatish, taxmin bildirish, sabab-oqibatni og’zaki izohlash, ilmiy muloqot.
Frontal laboratoriya ishi	Butun sinfning bir xil tajriba orqali standart o’lchash va asbob bilan ishlash usullarini egallashi.	Tajriba sxemasini yig’ish, asbob ko’rsatkichini o’qish, ma’lumotni jadvalga kiritish, hisoblash va xavfsizlik.
Guruhli mini-tadqiqot	Turli shartlar yoki parametrlarni taqqoslash, vazifalarni taqsimlash va yechimni jamoada ishlab chiqish.	Rejalashtirish, hamkorlik, muammo yechish, dalillash, taqdimot va o’zaro baholash.
Mustaqil/uy tajribasi	Kundalik buyumlar yordamida fizik hodisani darsdan tashqarida kuzatish va bilimni hayot bilan bog’lash.	Mustaqil ta’lim, mas’uliyat, resurslardan oqilona foydalanish, bilimni yangi kontekstga ko’chirish.
Virtual tajriba va simulyatsiya	Jihoz yetishmagan, murakkab yoki xavfli jarayonlarni modellashtirish, parametrlarni tez o’zgartirib natijani solishtirish.	Raqamli savodxonlik, model bilan ishlash, ko’p variantli tahlil, grafik talqin; real tajribaga tayyorgarlik.

Jadvaldan ko’rinadiki, namoyishli tajriba ko’proq kuzatish va tushuntirishni, laboratoriya ishi operatsion va o’lchash ko’nikmalarini, mini-tadqiqot esa rejalashtirish va hamkorlikni kuchaytiradi. Virtual tajriba real amaliyotni to’liq almashtirmaydi, chunki u asbobning fizik xususiyatlari, o’lchashdagi noaniqlik va real xavfsizlik mas’uliyatini to’liq bera olmaydi. Uning samarali o’rni – real tajribaga tayyorlash, ko’rinmaydigan jarayonni modellashtirish, parametrlar ta’sirini tez taqqoslash va jihoz tanqisligini qisman bartaraf etishdir. Demak, “real tajriba + virtual model + reflektiv tahlil” birikmasi metodik jihatdan eng maqbul yechim hisoblanadi.

“Nazariya + Tajriba + Tahlil” yondashuvi va laboratoriya mashg’ulotining bosqichlari

Tajriba darsdan alohida, vaqt qolsa bajariladigan faoliyat emas, mavzuning mazmuniy markazi sifatida joylashtiriladi. Yangi qonuniyat o’rganilganda “Nazariya + Tajriba + Tahlil” yondashuvi qo’llanadi: nazariy modelning asosiy tushunchalari qisqa va muammoli tarzda beriladi, tajriba orqali bog’lanish kuzatiladi yoki o’lchanadi, so’ng natija nazariya bilan solishtirilib izohlanadi. Ayrim mavzularda ketma-ketlik “Tajriba + Muammo + Nazariya + Qayta tajriba” ko’rinishiga o’zgarishi mumkin. Muhimi, tajriba va nazariya o’rtasida tahliliy ko’prik bo’lishidir.

Laboratoriya mashg’uloti quyidagi izchillikda tashkil etiladi:

- 1) motivatsiya va hayotiy muammo;
- 2) maqsad, gipoteza va kutiladigan natijani belgilash;
- 3) yo’riqnoma hamda xavfsizlik qoidalarini anglash;
- 4) tajriba sxemasini yig’ish va o’lchashlarni bajarish;
- 5) natijalarni qayd etish, hisoblash, grafik yoki jadvalda ifodalash;
- 6) xatolik manbalari va sabab-oqibat bog’lanishlarini tahlil qilish;
- 7) ilmiy xulosa va yangi vaziyatdagi amaliy topshiriq;
- 8) o’z-o’zini va o’zaro baholash.



Ushbu ketma-ketlik o'quvchining faqat yakuniy sonni topishini emas, butun eksperimental faoliyatni ongli boshqarishini ta'minlaydi.

Yo'riqnoma ham kompetensiya darajasiga mos ravishda differensiallashtiriladi. Boshlang'ich darajadagi o'quvchiga qadam-baqadam algoritmi va tayyor jadval, o'rta darajaga qisman to'ldirilgan reja, yaxshi darajaga mustaqil o'lchash va tahlil savollari, yuqori darajaga esa tajriba shartini o'zgartirish, muqobil usul taklif qilish yoki konstruktiv mahsulot yaratish topshirig'i beriladi. Shu tariqa barcha o'quvchilar umumiy minimal natijaga erishadi, kuchli o'quvchilar esa tadqiqot va ijodiy izlanish darajasiga ko'tariladi.

7–11-sinflarda didaktik ta'minotning bosqichma-bosqich murakkablashuvi

Amaliy kompetensiya bir martalik laboratoriya ishi bilan shakllanmaydi. U sinfdan sinfga o'tishda yangi faoliyatlar qo'shilishi va oldingi ko'nikmalarning murakkab vaziyatlarda takror qo'llanishi orqali rivojlanadi. Dastlab kuzatish va oddiy o'lchash ustun bo'lsa, keyingi bosqichlarda grafik tahlil, bilvosita o'lchash, noaniqlikni hisobga olish, tajribani mustaqil loyihalash va ilmiy dalillash kuchayadi. Mazkur progression 2-jadvalda ifodalangan.

2-jadval: 7–11-sinflarda fizik tajriba faoliyatining izchil murakkablashuvi

Sinf	Yetakchi faoliyat va namunaviy tajribalar	Kutiladigan kompetensiyaviy natija
7-sinf	Kuzatish va sodda o'lchash: o'rtacha tezlik, zichlik, tok kuchi va kuchlanishni o'lchash, Om qonunini dastlabki tekshirish.	Asbob shkalasini o'qiydi, oddiy zanjir yoki qurilmani yig'adi, natijani jadvalga kiritadi, formula asosida hisoblaydi va asosiy xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi.
8-sinf	O'lchovlar seriyasi va grafik tahlil: prujina qattiqligi, ishqalanish koeffitsiyenti, ketma-ket/parallel ulash, oddiy elektromagnit yasash.	Bir necha sharoit natijalarini taqqoslaydi, grafik quradi, qonuniyatni tajribada tekshiradi, guruhda rol bajaradi va sodda konstruktorlik yechimini yaratadi.
9-sinf	Miqdoriy va nazariy taqqoslash: solishtirma issiqlik sig'imi, namlik, nur sindirish ko'rsatkichi, linzaning optik kuchi.	Bilvosita kattalikni hisoblaydi, tajriba va nazariy qiymatni qiyoslaydi, xatolik sabablarini izohlaydi, tanqidiy xulosa chiqaradi.
10-sinf	Tadqiqotga yaqin eksperiment: qiya tekislik FIKI, mayatnik orqali g, manbaning EYuK va ichki qarshiligi, diodning V-A tavsifi.	Gipoteza tuzadi, takroriy o'lchash va o'rtacha qiymatdan foydalanadi, grafikdan parametr aniqlaydi, noaniqlikni baholaydi va muammoni mustaqil hal qiladi.
11-sinf	Mustaqil va murakkab tajribalar: RLC-zanjir rezonansi, difraksion panjara, yoritilganlikning masofa va manba kuchiga bog'liqligi.	Murakkab tajriba sxemasini tushuntiradi, model va real natijani solishtiradi, dalillangan ilmiy xulosa beradi, tajribani yangi shartga moslashtiradi va eksperimental madaniyat namoyon etadi.

Bosqichli tizimning muhim xususiyati – bir xil kompetensiya har safar yangi mazmun va murakkablikda qayta namoyon bo'lishidir. Masalan, jadval tuzish 7-sinfda tayyor ustunlarga son kiritishdan boshlansa, 9-sinfda o'quvchi jadval tarkibini o'zi belgilaydi, 10–11-sinflarda esa ma'lumotni grafik, regressiya yoki noaniqlik bilan izohlaydi. Xuddi shuningdek, asbobdan foydalanish oddiy termometr va sekundomerdan boshlanib, yuqori sinflarda ampermetr-voltmetr tizimi, optik dastgoh, generator yoki raqamli o'lchov vositalariga o'tadi. Bu izchillik "sodda harakat – ongli usul – mustaqil strategiya – ijodiy transfer" rivojlanish mantiqiga mos keladi.

Didaktik ta'minot tarkibi va baholash mezonlari

Tajriba faoliyatining samaradorligi faqat laboratoriya jihozlari mavjudligiga bog'liq emas. To'laqonli didaktik ta'minot olti o'zaro bog'langan elementdan tashkil topadi:

- 1) kompetensiyaviy maqsad va kutiladigan natija;
- 2) tajriba yoki muammoli topshiriq mazmuni;
- 3) fizik asboblardan, kundalik buyumlar va raqamli vositalar;
- 4) yo'riqnoma, xavfsizlik kartasi, ma'lumot jadvali va grafik blanki;
- 5) muhokama, amaliy qo'llash va refleksiya savollari;
- 6) kuzatuv varaqasi, laboratoriya hisoboti, rubrika, portfolio hamda o'z-o'zini baholash shakllari.

Jihoz ushbu tizimning zarur, ammo yagona bo'lmagan qismidir.

Moddiy-texnik baza cheklangan sharoitda tajriba mazmuni bekor qilinmasligi, balki minimal resursli variantga moslashtirilishi kerak. Masalan, qimmat qurilma o'rniga kundalik buyumlar asosidagi model, bitta stend bilan stansiyali ish, navbatli guruhlar, oldindan tayyorlangan videofragment yoki virtual simulyatsiya qo'llanadi. Biroq har bir muqobil yechim o'quvchining kamida bitta real o'lchash, ma'lumotni qayd etish va xulosa chiqarish harakatini bajarishini ta'minlashi lozim. Aks holda dars faqat vizual tomoshaga aylanib qoladi.



Amaliy kompetensiyani baholashda yakuniy javobdan ko'ra jarayonning kuzatiladigan dalillari muhim. O'quvchi tajriba rejasini qanday tuzdi, asbobni to'g'ri uladimi, o'lchov birligini yozdimi, ma'lumotni qayta ishlay oldimi, xulosasi dalillimi, xavfsizlik va hamkorlik qoidalariga rioya qildimi – baholash shu ko'rsatkichlarga asoslanadi. Asosiy mezonlar va dalillar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: **Amaliy kompetensiyani mezonli baholash ko'rsatkichlari**

Baholash mezonlari	Kuzatiladigan indikator	Baholash dalili
Rejalashtirish va gipoteza	Maqsadni tushuntiradi, o'zgaruvchilarni ajratadi, tajriba ketma-ketligini va kutiladigan natijani belgilaydi.	Tajriba rejasini, og'zaki izoh, topshiriq kartasi.
Asbob va o'lchash	Asbobni to'g'ri tanlaydi va ulaydi, diapazon/bo'linma qiymatini hisobga oladi, takroriy o'lchash bajaradi.	O'qituvchi kuzatuv varaqasi, amaliy namoyish, foto/video dalil.
Ma'lumotni qayd va qayta ishlash	Birliklarni to'g'ri yozadi, jadval/grafik tuzadi, formula va o'rtacha qiymatdan foydalanadi.	Laboratoriya daftari, jadval, grafik, hisob-kitob.
Tahlil, xulosa va transfer	Bog'lanishni izohlaydi, xatolik manbasini ko'rsatadi, gipotezaga baho beradi va bilimni yangi vaziyatga qo'llaydi.	Hisobot xulosasi, savol-javob, eksperimental masala yoki mini-loyiha.
Xavfsizlik, hamkorlik va refleksiya	Qoidalariga rioya qiladi, guruh rolini mas'uliyat bilan bajaradi, o'z yutug'i va kamchiligini tahlil qiladi.	Xavfsizlik chekl-listi, o'zaro baholash, refleksiya varag'i, portfolio.

Baholash natijasi to'rtta darajada talqin qilinadi. Boshlang'ich darajada o'quvchi harakatni to'liq ko'rsatma va doimiy yordam bilan bajaradi; o'rta darajada standart vazifani qisman mustaqil bajarsa-da, ayrim bosqichlarda yo'naltirishga muhtoj bo'ladi; yaxshi darajada tajribani aniq, xavfsiz va asosan mustaqil bajarib, natijani ilmiy izohlaydi; yuqori darajada esa tajribani loyihalaydi yoki shartini o'zgartiradi, muqobil yechim taklif qiladi, noaniqlikni baholaydi va bilimni noodatiy vaziyatga transfer qiladi. Rubrika o'quvchiga keyingi darajaga o'tish uchun qaysi faoliyatini yaxshilashi kerakligini aniq ko'rsatadi.

Shunday qilib, metodik-didaktik tizimda namoyishli tajriba muammo va motivatsiyani, laboratoriya ishi operatsion faoliyatni, mini-tadqiqot ijodiy va hamkorlikdagi izlanishni, virtual muhit modellashtirishni, mezonli baholash esa qayta aloqa va refleksiyaning ta'minlaydi. Ushbu elementlar alohida qo'llanganda ayrim ko'nikmalarni rivojlantiradi, o'zaro bog'langan holda esa o'quvchining yaxlit fanga oid amaliy kompetentligini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari fizika ta'limida nazariy bilimni real faoliyatga aylantiruvchi yetakchi didaktik vositadir. Ularning samaradorligi tajriba soni bilan emas, o'quvchi bajaradigan kuzatish, o'lchash, tahlil, xulosa, transfer va refleksiya harakatlarining izchil tashkil etilishi bilan belgilanadi. Taklif etilgan besh bosqichli algoritim tajribani bilimni tasdiqlovchi epizoddan kompetensiyani shakllantiruvchi yaxlit siklga aylantiradi.

7–11-sinflar kesimidagi tahlil amaliy faoliyatning oddiy kuzatish va o'lchashdan grafik tahlil, bilvosita o'lchash, noaniqlikni baholash, mustaqil loyihalash va ilmiy dalillashga tomon murakkablashishi zarurligini ko'rsatdi. Mazkur izchillik saqlanganda har bir sinfda egallangan ko'nikma keyingi bosqich uchun tayanch vazifasini bajaradi va o'quvchining eksperimental madaniyati uzluksiz rivojlanadi.

Fizika darslarida amaliy kompetensiyalarni shakllantirishni takomillashtirish uchun quyidagi metodik tavsiyalar ilgari suriladi:

- har bir mavzu uchun kutiladigan amaliy natijani oldindan belgilash va tajribani "Nazariya + Tajriba + Tahlil" tamoyili asosida darsning mazmunini markaziga joylashtirish;
- namoyishli tajribada o'quvchini taxmin, savol va izohga jalb etish; laboratoriya mashg'ulotida esa rejalashtirish, o'lchash, qayta ishlash, xulosa va refleksiya bosqichlarini to'liq bajarish;
- guruh ishlarida rollarni navbat bilan almashtirish, topshiriqlarni tayanch, standart, murakkab va ijodiy darajalarga differensiallashtirish;
- real tajribani virtual laboratoriya va simulyatsiya bilan to'ldirish, ammo o'quvchining real asbob bilan ishlash va o'lchash tajribasini saqlab qolish;
- maktab sharoiti uchun minimal resursli tajribalar banki, yo'riqnoma kartalari, xavfsizlik chekl-listlari, jadval va grafik blanklari hamda STEAM mini-loyihalarini ishlab chiqish;
- amaliy kompetensiyani mezonli rubrika, kuzatuv varaqasi, laboratoriya hisoboti, o'z-o'zini va o'zaro baholash, portfolio orqali muntazam monitoring qilish.



Taklif etilgan metodik-didaktik ta'minot o'quvchining fizik hodisani ko'rishidan boshlab uni o'lchashi, ilmiy izohlashi va hayotiy vaziyatda qo'llashigacha bo'lgan faoliyatni yaxlit boshqaradi. Natijada fizika darsi tayyor bilimni reproduksiya qilish maydonidan o'quvchi mustaqil fikrlaydigan, tajriba o'tkazadigan, dalil asosida xulosa chiqaradigan va o'z faoliyatini baholaydigan ta'lim muhitiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son¹ 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son² "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son³ "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. № 2. С. 58–64.
5. OECD. The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary. Paris: OECD, 2005.
6. Suyarov K.T., Choriyev R.Q. Fizikadan laboratoriya va namoyishli tajribalar. Toshkent: Talqin, 2003. 118 b.
7. Голдин Л.Л. и др. Руководство к лабораторным занятиям по физике. Москва: Наука, 1983. 688 с.
8. Suyarov K.T. Fizik eksperimentlar asosida o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish (akademik litseylar misolida): pedagogika fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq, 2019. 41 b.
9. Turaxonov F.B. Noan'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi: DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2020. 48 b.
10. Dehqonova O.X. Maktab fizika ta'limida fanlar integratsiyasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Farg'ona, 2023. 48 b.
11. Ernazarov A.N. Ta'lim klasteri sharoitida o'quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq, 2023. 46 b.
12. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. Arlington, VA: NSTA Press, 2013.
13. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. Paris: UNESCO, 2015.
14. Isroilov Sh.Sh. Organizing teaching demonstrative experiments and laboratory exercises based on physical equipment // Science and Innovation. 2023. P. 157–161.
15. Suyarov K.T., Shermetova S.T. Fizikadan eksperimental mashg'ulotlarni bajarishda o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlarini // Academic Research in Educational Sciences. 2021. Vol. 2, No. 2. B. 491–495.

¹ lex.uz/docs/-5013007

² <https://lex.uz/docs/-5338558>

³ <https://lex.uz/ru/docs/3153714>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.